

HARBIY OILADA FARZAND TARBIYASINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Badalova Visola Norqobilovna

*Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti Psixologiya mutaxassisligi
2-bosqich magistri*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada harbiy oilalarda voyaga yetayotgan farzandlarning psixologik rivojlanish xususiyatlari, ularning emotsional barqarorligi, intizomlilik, ijtimoiy moslashuv jarayonlari hamda o'zbek psixologlarining mazkur sohadagi tadqiqotlari tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, harbiy oilalarda tarbiya jarayonini takomillashtirishga qaratilgan metodik tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: harbiy oila, psixologiya, farzand tarbiyasi, metodika, intizom, tahlil, ijtimoiy moslashuv.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются психологические особенности развития детей, растущих в военных семьях, их эмоциональная устойчивость, дисциплинированность, процессы социальной адаптации, а также исследования узбекских психологов в этой области. Приводятся методические рекомендации по совершенствованию процесса воспитания.

Ключевые слова: военная семья, психология, воспитание детей, методика, дисциплина, анализ, социальная адаптация.

KIRISH

Harbiy oilalarda farzand tarbiyasi o'ziga xos sharoit va omillar ta'sirida kechadi. Harbiy xizmat intizom, qat'iylik, javobgarlik, sadoqat, vatanparvarlik kabi fazilatlarni talab qiladi. Bu fazilatlar ota-onalar tomonidan farzand tarbiyasiga ham singdiriladi. Shu bilan birga, xizmatdagi uzoq safarlar, xavfli sharoitlar va oilaviy ajralish holatlari bolalarda emotsional zo'riqish va ijtimoiy moslashuvda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan globallashuv davriga kelib ham O'zbekiston o'z istiqboli va kelajagini oilani rivojlantirish, uni e'zozlashda, deb bilayotgani milliy qadriyat va an'analarimizni saqlagan holda zamonaviy, namunali va farovon oilani barpo etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangani barchamizga ma'lum. Zero davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek "Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi"[1].

Oila – ijtimoiy hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta'minlaydigan, kelajak avlod, qadriyatlar tizimiga o'z ta'sirini

ko'rsatadigan ijtimoiy makondir.

Oila erkak va ayol o'rtasidagi rasmiy nikohga asoslangan, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlardan tashkil topgan, jamiyatning axloqiy me'yorlari va qoidalari qo'llab-quvvatlanadigan, insoniyat madaniyatini kelajak avlodga etkazib beradigan va uni rivojlantiradigan birlamchi ijtimoiy guruhdir.

Oila qurish masalasi har bir inson hayotida ulkan voqea hisoblanadi. Bo'lajak ofitser sifatida oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari hayoti va faoliyatida ham oila muhim ahamiyatga egaligi yaqqol nomoyon bo'ladi. 3-5 yil davomida kazarma sharoitida tahsil olish, qarama-qarshi jins vakillari bilan bevosita muloqotning kamligi ularda oila va oila qurish, jinsiy munosabatlar haqidagi bilim, ko'nikma va tushunchalarni etarli darajada egallay olmasliklariga sabab bo'ladi. Natijada oliy harbiy ta'lim muassasasini tamomlagan yosh ofitserlarning turmush o'rtoq tanlashlarida va oilaviy munosabatlarni amalga oshirishda muammolar yuzaga chiqmoqda. Ayrim hollarda yosh ofitserlar o'zlariga nisbatan yoshi katta, muqaddam turmush qurgan, beva ayollar bilan ishqiy munosabatlar o'rnatishga hamda nosog'lom jinsiy hayot tarziga yo'l qo'yadilar. Bunday nosog'lom muhit ularning xizmat faoliyatlariga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). V.P. Levkovich tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, yoshlar orasida nikohning barqarorligini asrash, unga salbiy ta'sir qiladigan omillar va nikohgacha bo'lgan sherigini hayoti tarzini bilish va unga to'g'ri munosabatda bo'lmaslik hamda oilaviy munosabatlar haqidagi tushunchalar juda past ekanligi noqonuniy nikohni vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda[2].

Ye.A. Turinseva, Rossiya Federatsiyasi oliy harbiy ta'lim muassalarida kursantlarni oila qurishga tayyorlash ishlari yo'lga qo'yilmagan. Bundan farqli ravishda

Amerika Qo'shma Shtatlarida kursantlarni oila qurishga tayyorlash tizimi mavjud. AQShda ushbu ishlar ruhoniylar tomonidan amalga oshiriladi. Harbiy xizmatchilar turmush qurishdan oldin bo'lajak rafiqalari bilan maxsus kurslardan o'tishadi. Kurslar yakunida ular bilan oila qurishga tayyorlik darajasi tekshiriladi. Kursni muvofaqiyatli tamomlaganlarga turmush qurish uchun ruxsat beriladi. Bunday usul AQSh harbiy xizmatchilari o'rtasida ajrimlarning kamayishiga sabab bo'lgan[3].

Mamlakatimiz olim va tadqiqotchilaridan F.A. Akramova va Z.B. Bilolova tomonidan kursant hamda muddatli harbiy xizmatchilarning oila haqidagi tasavvurlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ular tomonidan kursant va muddatli harbiy xizmatchilar o'rtasida tashkil etilgan so'rovnoma javoblari tahlil qilinganida, respondentlarning bergan javoblarida farqli jihatlar ko'zga tashlangan.

Jumladan, "oilada "erkak – ayol", "qaynona – kelin", "ota – ona – farzand"

munosabatlari borasida berilgan savollarga kursantlar erkak kishi oila va farzandlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish, oilaviy munosabatlarni tartibga solishi lozimligini, askarlar esa, oiladagi mo'tadil psixologik muhit uchun bo'lajak turmush o'rtog'i va onasi mas'ul ekanligini ma'lum qilishgan. Javoblardagi farqli jihatning sababi o'rganilganida, kursantlarga o'quv dasturi asosida "Oilaviy munosabatlar psixologiyasi" fani o'qitilishi, ular askarlardan farqli ravishda aqliy va jismoniy mehnat bilan doimiy ravishda bandligi hamda badiiy adabiyotlar mutolaa qilishlari ma'lum bo'ldi. Bular yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va o'qitish lozimligidan dalolat beradi[4]."

O.M. Lugavaya ushbu muammo bo'yicha oliy harbiy ta'lim musassasalari kursantlari orasida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijasida kursantlarning 91 foizi oliy harbiy o'quv yurtlarida oilaviy hayotga tayyorlash haqida bilim berilishi nihoyatda zarurligini bildirishgan[5].

O'zbek psixologlari M. G'aniyeva, N. Jo'rayev va D. Yusupovalar tadqiqotlarida harbiy oilalarda o'sayotgan farzandlarning hissiy rivojlanishida ota-onaning muloqot sifati muhim omil ekanligi ta'kidlanadi. Ularning fikricha, harbiy ota-onalar bolalar bilan suhbatni ishonch, hurmat va rag'bat asosida qurishlari lozim. Farzandlarning ijtimoiy moslashuvi harbiy oilalarda bolalar ko'pincha yangi joylarga ko'chib o'tishadi. Bu ularda yangi ijtimoiy muhitga tez moslashish qobiliyatini rivojlantiradi, ammo do'stlashish jarayonida hissiy barqarorlikni talab etadi.

Metodik tahlil

Harbiy oilalarda farzand tarbiyasini o'rganishda psixodiagnostik metodlar qo'llanildi:

L. S. Vigotskiy va A. V. Petrovskiyning shaxsning ijtimoiy faolligini baholash metodikasi;

R. Kettellning 16 omilli shaxs testi;

R. Lazarusning stressga moslashuv metodikasi;

E. Eydemiller va V. Yustitskisning "Oila iqlimi diagnostikasi".

Natijalar shuni ko'rsatdiki, harbiy oilalarda o'sayotgan bolalarda ijtimoiy faollik yuqori bo'lsa-da, emotsional barqarorlik ota-onaning ruhiy holati bilan chambarchas bog'liqdir.

Natijalar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, harbiy oilalarda tarbiya jarayonida ota-onaning hissiy barqarorligi, mehr-muhabbati va muloqot madaniyati hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Oila – milliy qadriyatlar oshyoni, qaysiki oilada ota-ona xurmati joyida bo'lsa, qaynona kelin munosabatlari risoladagidek bo'lsa, kelin kuyov bir-birlariga mehrmuhabbatli bo'lsa, oiladagi katta-kichik oqibatli bo'lsagina, milliy urf-odat va qadriyatlarimizni qadrlagan bo'lamiz. Shunday ekan biz birinchi navbatda yoshlarni oilaga tarbiyalashni maqsad qilib olishimiz kerak. Qizlarni ham yigitlarni ham katta

hayot ostonasiga tayyor holatda kirsagina juda ko‘plab kelgusida paydo bo‘ladigan muammolarni oldini olgan bo‘lamiz.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, oliy harbiy ta‘lim muassasalari tinglovchi kursantlarini oila qurishga tayyorlash borasidagi ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, tinglovchi kursantlarning oila va oila munosabatlarga oid bo‘lib va ko‘nikmalarini yanada oshirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi.

1. Oliy harbiy ta‘lim muassasalarida O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi Mahalla va oila tadqiqot instituti hududiy boshqarmalari bilan hamkorlikda tinglovchi kursantlar va boshqa toifadagi yosh harbiy xizmatchilar hamda xodimlar uchun “Yosh harbiy xizmatchilar yoki xodimlarni oila qurishga tayyorlash xonalari”ni tashkil etish, ushbu xonalarni zaruriy uslubiy va ilmiy adabiyotlar bilan boyitish, mutaxassisilar ishtirokida oila mavzusiga bag‘ishlangan suhbat, maxsus treninglar o‘tkazib borish;

2. Tinglovchi kursantlarga mustaqil ta‘lim jarayonida oila va oilaviy munosabatlar tarbiyasiga oid adabiyotlarni mutolaa qilishlari yuzasidan tavsiyalar berib borish;

3. Oila qurishga tayyorlashda diniy ma‘rifatning o‘rnini inobatga olgan holda, oliy harbiy ta‘lim muassasalari tinglovchi kursantlari o‘rtasida diniy ulamolar ishtirokida uchrashuvlar tashkil etish.

4. Oliy harbiy ta‘lim muassalarining bitiruvchi bosqich tinglovchi kursantlari uchun “Oilaviy munosabatlar psixologiyasi”, “Oila pedagogikasi” maxsus kurslarini tashkil etish va kurs yakunida ularning oila qurishga tayyorlik darajalarini aniqlash maqsadida test sinovlarini o‘tkazish hamda natijalari bo‘yicha keyinchalik birinchi xizmat joylariga yuborish.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash joizki, oliy harbiy ta‘lim muassasalarida tinglovchi kursantlarni oila qurishga tayyorlashga alohida e‘tibor qaratilar ekan, ularning ta‘lim muassasalarini tamomlab katta hayot ostonasida o‘zlarining mustahkam o‘rinlarini topishlariga hamda baxtli va mustahkam oilaning sohibiga aylanishlari kafolatlanadi. Agar oila ichida ijobiy muhit yaratilsa, farzandlarda mas‘uliyat, sadoqat va vatanparvarlik sifatlari uyg‘un shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar / Использованная литература:

1. G‘aniyeva M. (2018). Harbiy oilalarda psixologik muhit va farzand tarbiyasi. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Jo‘rayev N. (2019). Oila psixologiyasi asoslari. Samarqand: SamDU nashriyoti.
3. Petrovskiy A. V. (1990). Psixologiya. Moskva: Prosveshchenie.
4. Lazarus R. (1991). Stress and Adaptation. New York: Springer.
5. Eydemiller E., Yustitskis V. (2003). Semeynaya psixoterapiya. Sankt-Peterburg: Piter.